

## Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi


2025 yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirdorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025- yilning 1 aprel holatiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasida 2446 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asososiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 741 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 30,3 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 286 tasi (11,7 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 198 tasi (8,1 %) kiyim ishlab chiqarishga, 198 tasi (8,1 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga va 166 tasi (6,8 %) mebel ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni  
1 aprel holatiga ko'ra





## II. Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari shahar va tumanlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025- yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi korxonalarini tomonidan 6301,5 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 103,1 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>6301,5</b>	<b>103,1</b>
Nukus sh.	1801,7	90,6
Amudaryo tumani	408,9	113,1
Beruniy tumani	258,9	114,5
Bo'zatov tumani	13,1	112,8
Qorao'zak tumani	215,2	112,7
Kegeyli tumani	134,3	100,3
Qo'ng'irot tumani	369,6	108,3
Qanliko'l tumani	186,5	105,8
Mo'ynoq tumani	135,8	118,2
Nukus tumani	66,8	114,2
Taxiatosh tumani	923,4	97,1
Taxtako'pir tumani	98,6	108,5
To'rtko'l tumani	381,6	109,5
Xo'jayli tumani	194,4	108,6
Chimboy tumani	143,1	105,9
Shumanay tumani	95,8	108,7
Ellikkala tumani	232,9	109,1

### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (5216,7 ming so'm), Taxiatosh tumanida (11920,6 ming so'm), Mo'ynoq tumanida (4003,4 ming so'm), Qorao'zak tumanida (3935,4 ming so'm) o'tacha respublika darjasini ko'rsatkichidan (3100,5 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 101,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, Mo'ynoq tumanida (117,3 %), Bo'zatov tumanida (113,0 %), Beruniy tumanida (112,4 %) qayd etilib respublika ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


**Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi  
yanvar-mart oylarida**



**Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari**

2025 yilning yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 5308,8 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (84,2 %) ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 89,4 mlrd so'm (1,4 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 874,4 mlrd so'm (13,9 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 28,9 mlrd so'm (0,5 %) ni tashkil etdi.

**Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab ishlab chiqarish hajmi,  
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi  
2025 yilning yanvar-mart oylarida**





### III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025 yilning yanvar-mart oylarida respublikada 14,2 ming tonna ip kalava (2024 yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 159,1 % ga ko'paygan), 28,4 ming tonna bug'doy uni (93,3 % ga ko'paygan), 2,5 ming tonna o'simlik yog'i (19,3 % ga ko'paygan) hamda ), 222,6 ming tonna portlandsement (18,9 % ga ko'paygan), 58,9 ming tonna dinatriy karbonati (1,0 % ga ko'paygan), 6,4 ming tonna paxta tolasi (63,5 % ga kamaygan), 814,9 ming l 100% li spirit (9,7 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023 yil yanvar-mart*	2024 yil yanvar-mart*	2025 yil yanvar-mart
Portlandsement, tonna	36614,2	187281,0	222589,9
Paxta tolasi, tonna	11180,8	17569,2	6414,0
Tozalangan o'simlik yog'i, tonna	2600,4	2090,8	2495,0
Bug'doy uni, tonna	18422,4	14689,7	28396,0
O'simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar, tonna	412,0	1804,0	884,0
Aroq, ming l 100%li spirit	879,1	902,9	814,9
Ip kalava, tonna	4963,2	5484,6	14211,1
Tabiiy gaz, mln kub.m	265,7	232,3	202,6
Gaz kondensati, ming t	15,9	14,0	10,8
Dinatriy karbonati, ming t	54,1	58,4	58,9

\*2023-2024 yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.


**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**  
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

## Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 24,3 % (2024- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 35,2 % (2024- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 81,5 %) ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,0 % ni (2024- yilning yanvar-mart oylarida 0,03 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 34,1 % ni (50,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 9,8 % ni (5,0 %), quyi texnologiyali 56,0 % (44,7 %) ni tashkil etgan.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025- yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 77,6 % ni, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish esa 82,7 % ni tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-mart*	2024- yil yanvar-mart*	2025- yil yanvar-mart
Elektrenergiya, mln.kvt.s	1388,1	1572,2	1219,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	22,1	21,6	17,8
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	50878,8	64237,0	67339,5

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi**


O'tgan yilning mos davriga nisbatan shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlarda 21,3 % ga, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 14,9 % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlarda 14,1 % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-mart*	2024- yil yanvar-mart*	2025- yil yanvar-mart
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	1643,3	2039,4	2344,1
Shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	2398,8	2819,6	3421,2
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	14972,9	16872,9	19255,3

\*2023-2024 yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.

#### IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2408,6 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyligi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 38,2 % ni tashkil etdi. 2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining umumiyligi ishlab chiqarishdagi ulushi 25,2 % ni tashkil etgan.



#### V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Sanoat bu** – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmogi.

##### Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

**Sanoat ishlab chiqarishi hajmi** to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvi ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuvi materiallari.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



## Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

**Fizik hajm indeksini hisoblash** deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzallikkabi: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

**Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi** asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Sanoat va energetika  
statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**  
M. Kurbanova  
61 222-75-87 (9510)

**Manzil:**  
230103, Nukus,  
A. Dosnazarov kóshesi, 97 a-úy  
**Pochta:** [info@qrstat.uz](mailto:info@qrstat.uz)  
Tel.: +998 (61) 222-22-45